

ISSN:2181-0427

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2019 йил 6 сон

72	Phd таълими тизимида европа тажрибаларининг ўзига хослиги: uzdoc 2.0 лойиҳаси мисолида Лутфуллаев П.М.....	394
73	Узлуксиз таълим тизимида «Информатика ва ахборот технологиялари» фани узвийлиги ва узлуксизликни таъминлаш муаммолари Марасулова З.А., Аҳмедова З.С.....	399
74	Бошланғич таълим ўқитувчисининг эҳтиёжга асосланган малака ошириш tizimini takomillashtirish Пулатова Д.Т.....	406
75	Bolaga ikkinchi tilni o'rgatishning o'ziga xos xususiyati Ergasheva X.Y.....	415
76	Умумтаълим фанларидан дарсликлар яратишнинг назарий асослари Ортиқов А.У.....	418
77	Сходства педагогических взглядов А. Навои и Ч.Айтматова Абдулвохидов Э.....	424
78	Влияние восточного наследия на формирование совершенствования личности Мамирова Д.Т.....	430
79	Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirishda loyihaviy ta'lim vositasining o'rni Farmonova Sh.....	434
80	Бўлажак технология фани ўқитувчиларини касбий-график компетентлигини ривожлантиришда шахсга йўналтирилган таълимнинг роли Муслимов Ш.Н	441
81	Баркамол шахс тарбиясида китобхонликнинг ўрни Муминова Д.А.....	447
82	Zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil etishda mustaqil o'quv faoliyatini takomillashtirish Boltayeva M.L., Mahmudov N.N.....	455
83	Социальные факторы и способы мотивации по привлечению студенческой молодёжи к регулярным занятиям физической культурой и массовыми видами спорта Мамирова Д.Т.....	460
84	Хор бўлиб куйлашда ўқувчиларнинг икки овозда куйлаш малакаларини ривожлантириш усуллари Аҳмедов М.Э.....	465
85	Касбий таълим мазмунига қўйиладиган замонавий педагогик талаблар Кадиров Х.Ш.....	472
86	Иновационные методы обучения иностранным языкам в неязыковых вузах Идрисалиева Л.С	478

BOLAGA IKKINCHI TILNI O'RGATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI

Ergasheva Xilola Yunusxanovna

Namangan Muxandislik Texnologiya Instituti

Chet tillar kafedrası o'qituvchisi

***Annotatsiya** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ikkinchi til mashg'ulotlarida ona tilini mukammal o'zlashtirishining ahamiyati va mashg'ulot jarayonida ularning yosh psixologik xususiyatlarini xisobga olish nazarda tutiladi.*

***Kalit so'zlar:** intellekt, lingvistik, dialog, monolog, individual qobiliyatlar, nutqiy rivojlanish;*

ОСОБЕННОСТЬ ОБУЧЕНИЯ ВТОРОГО ЯЗЫКА РЕБЕНКУ

Эргашева Хилола Юнусхановна

Преподаватель кафедры иностранных языков

Наманганского инженерно-технологического института

***Аннотация:** В этой статье раскрываются вопросы овладения родным языком на втором языке дошкольного образования и с учетом их юных психологических установок*

***Ключевые слова:** интеллект, лингвистика, диалог, монолог, индивидуальные способности, развитие речи;*

THE PECULIARITY OF TEACHING THE SECOND LANGUAGE TO CHILDREN

Ergasheva Xilola Yunusxanovna

Teacher at the Department of Foreign Languages

of the Namangan Institute of Engineering and Technology

***Annotation:** In this article discusses the importance of mastering the native language in the second language of preschool education and taking into account their young psychological attitudes.*

***Key words:** intelligence, linguistics, dialogue, monologue, individual abilities, speech development;*

Yoshlarning ijtimoiylashuvida maktabgacha ta'lim muassasalarning o'rni bugungi kunda dolzarb muammo hisoblanib, uning oila, maktabgacha ta'lim muassasasi, mahalla, munosabatlarning ta'sirini o'rganish dolzarbdir.

Bugungi kunda tilni o'rgatishga e'tibor asosan maktabgacha yoshdan boshlandi. Sababi bu yoshda bolaning aqliy faoliyati bir narsadan ikkinchi narsani farqlash, rang-tasvirni, shakl-hajmni, maza-ta'mni ajratadi.

Tilga o'rgatish, nuqtani rivojlantirish nafaqat lingvistik sohada (bolaning til ko'nikmalarini – fonetika, leksika, grammatikani egallab olishi), balki bolalarning o'zaro hamda kattalar bilan muloqotini shakllantirish sohalarida ham ko'rib chiqilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, e'tiborga molik vazifa nafaqat nutq madaniyatini, balki muloqot madaniyatini ham shakllantirishdan iborat bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasini o'rgatish muhim o'rin tutadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasini qo'llash bilan birga narsa va hodisalarni idrok etish, o'zini qiziqtirgan masalalar to'g'risida fikr yuritish, o'ylash, nutq o'stirishni rivojlantirishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bola nutqini rivojlantirishning asosiy vazifasi bola tomonidan ikkinchi tilning har bir yosh bosqichi uchun belgilangan normalari va qoidalarini o'zlashtirilishi hamda uning kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishdir. Biroq, bir xil yoshdagi bolalarning nutqiy darajasi bir-biridan mutlaqo farq qilishi mumkin. Shuning uchun maktabgacha yoshda bola nutqni o'stirish va shakllantirish (chet tilini egallash) o'z tabiatiga ko'ra ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. U aqliy rivojlanish bilan uzviy bog'langan, chunki insonning rivojlangan tafakkuri – bu nutqiy, til, so'z-mantiqiy tafakkurdir. Nutqiy rivojlanish, tilni egallash va aqlni, bilishni rivojlantirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tafakkurni rivojlantirish uchun tilning qanchalik muhim ahamiyatga egaligidan dalolat beradi.

Bu masalada F.A.Soxin[1] alohida to'xtaladi. Nutqiy (til) va intellektual rivojlanishdagi o'zaro bog'liqlikni teskari yo'nalishda – intellekt dan tilga qarab ham ko'rib chiqish zarur. Bunday yondashuvni shartli ravishda intellektning til (lingvistik) funksiyasini tahlil qilish, ya'ni intellekt, fikrlash faoliyatining tilni egallashdagi ahamiyatini aniqlash sifatida ham belgilash mumkinligini ta'kidlaydi.

Ayniqsa, ravon nutqni, ya'ni mazmunli, mantiqiy, izchil nutqni shakllantirishda nutqiy va intellektual rivojlanish o'rtasidagi uzviy aloqa yanada aniqroq ko'rinadi. Biron-bir narsa haqida tushunarli qilib so'zlab berish uchun hikoya ob'ektini (predmet, voqeani) aniq tasavvur qilish, tahlil qila olish, asosiy xususiyat va sifatlarni tanlab olish, predmet bilan hodisalar o'rtasida turli nisbatlarni (sabab-oqibat, vaqt) o'rnata olish lozim. Bundan tashqari, ushbu fikrni ifodalash uchun eng maqbul so'zlarni tanlay olishni, oddiy va qo'shma gaplarni tuzishni bilish, alohida gaplar va fikrlarning bo'laklarini bog'lash uchun turli vositalardan foydalanish mumkin.

Ona tilini to'laqonli egallash, til qobiliyatlarini rivojlantirish maktabgacha yoshdagi bola shaxsini va ikkinchi tilni to'laqonli shakllantirishning o'zagini tashkil etadi. Chunki, bola ikkinchi tilni o'rganishi uchun ona tilini mukammal egallashi va o'z tilidagi har bir so'zni mazmun mohiyatini anglab yetishi va tushinishi kerak.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda erishilgan asosiy natijalar tengdoshlar bilan muloqot asosiy o'rin egallaydigan muloqot sohasidagi chuqur o'zgarishlar bilan bog'liq. Bola katta yoshdagi odamdan ko'ra o'z tengdoshini afzal ko'ra boshlaydi. Birga o'ynayotgan o'rtog'iga qaratilgan nutq kattalar bilan bo'lgan nutqdagiga nisbatan mazmunliroq bo'lib boradi. Sherik bilan dialog muvofiqlashtirilgan predmetli va nutqiy harakatlar tusiga ega bo'ladi. Bola endi qo'shnisining e'tiborini o'ziga jalb qilishni biladi, uning o'zi o'rtoqlarining ishlari va fikrlari bilan qiziqadi. Masalan ikki tengqur bola bir-biri bilan o'z dunyosi o'z olami doirasida suhbatlashadi.

-O'rtoq kecha meni dadam mexmonga olib bordilar.

-Qayerga bordinglar?

-Buvimnikiga.

-Muzqaymoq yedingmi buvingnikida?

-Yo'q.....

Muzqaymoq buvimnikida bo'lmaydi, u do'konda sotiladi.

-Men esa buvimnikiga mexmonga borganimda buvim manga muzqaymoq olib berganlar.....

Ko'rinib turibdiki, bolalar nutqining funksiyalari ko'p qirralidir. Bunda bola nutqdan atrofdagilar bilan muloqot o'rnatish, o'ziga, o'z ishlari va kechinmalariga e'tiborni jalb qilish, bir-birini tushunish, sherigining xulqiga, fikr va hissiyotlariga ta'sir qilish, o'z faoliyatini yo'lga qo'yish, o'zining va birga o'ynayotgan o'rtoqlarining harakatlarini muvofiqlashtirish uchun foydalanadi. Nutq atrofdagilar haqidagi bilimlarning muhim manbai, tabiat, narsalar va kishilar olami haqidagi tasavvurlarni qayd etish vositasi, bilish faoliyatining vositasi bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bola uchun nutq ob'ektiv munosabatlarning alohida sohasi bo'lib, bola ularni so'zlar, tovushlar, qofiyalar, ma'nolar bilan o'ynash orqali anglab etadi.

-Oyijon quyosh nimaga chiqadi?

-Olamni yoritish, isitish uchun!

-Quyosh chiqmasa olam yorug' bo'lmasakanda-a?

-Oyijon osmonda yulduzlar qancha?

-Sanoqsiz o'g'lim.

-Oyijon yomg'ir bulutlardan yog'adimi?.....

Bola o'zining amaliy, bilish va shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun o'zida mavjud bo'lgan barcha vositalardan va noixtiyoriy vaziyatlarda fikr bildirishdan, nonutqiy vositalardan (imo-ishoralardan, mimika va harakat) va bevosita nutqning o'zidan foydalanadi. Nutqning barcha turlari va shakllari til shaxsining takrorlanmas individual portretini hosil qilgani holda o'zaro birgalikda mavjud bo'ladi.

Ma'lumki, dialogni rivojlantirish faqatgina nutqning muayyan kompozitsion shaklini o'zlashtirishdan iborat bo'lib qolmay, balki u bolaning ijtimoiy jihatdan rivojlanishi va uning shaxsi shakllanishining muhim tarkibiy qismi bo'lib ham hisoblanadi. Dialogik muloqot nafaqat xabar qilishga (intellektual mazmundagi xabarga) va o'z manfaatlariga yo'naltirilishni, balki sherigining mavqesini, uning manfaatlari, istak-xohishlari va kayfiyatini ham hisobga olishni nazarda tutadi. Dialogda nutqiy harakatlarni muvofiqlashtirish to'g'ridan-to'g'ri sherigini tushuna olish, uning nuqtai-nazarini qabul qilishni bilishga ham bog'liqdir. Bunday tajribani bolalar o'zaro uyushgan faoliyatda (birgalikda yasash, rasm chizish, hikoya qilish, jamoaviy o'yinlar) orttiradilar. Jamoaviy o'yin turlaridan "Nima Bo'ladi agar" o'yinini olsak, bu faoliyat orqali bolaning nutqi rivojlanishiga amaliy yordam beradi. Tengdoshlar bilan muloqotda bola nutqi mazmunlilik (muloqot vaziyatidan qat'iy nazar til vositalaridan foydalanish asosida mazmunning tushunarlilik) kasb etadi.

Demak, Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarning dialogik muloqoti jarayonida nutqning yangi shakli – monolog vujudga keladi va shakllanadi. U bolaning o'z fikrlari, hissiyotlari, atrofdagi olam haqidagi bilimlari bilan o'rtoqlashishni istashi tufayli vujudga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'raeva B.D. Maktabgacha ta'limni modernizatsiyalash muammolari va rivojlantirish istiqbollari. Xalq ta'limi j., 2008. 5-son. -114-119 b.
2. R.M. Qodirova O'zbekiston bolalar bog'chalari va maktablarida bolalarga 5-6 yoshdan boshlab rus tilida dialogik nutqni o'rgatish. T., "O'qituvchi"1993.-с.1
3. www. ziyonet.uz. G.Yo'ldosheva. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Maruzalar matni. Qarshi, 2008.
4. www. ziyonet.uz. Berdiyeva M.M. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Termiz, 2003.

УМУМТАЪЛИМ ФАНЛАРИДАН ДАРСЛИКЛАР ЯРАТИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Ортиқов Азизбек Улуғбекович,

Наманган давлат университети мустақил изланувчиси

Аннотация. Мақолада ўқув адабиётларини ишлаб чиқишнинг назарий асослари, умумий ўрта таълим мактаблари учун дарсликларнинг шаклланиш ва яратиш босқичлари баён этилган.

Таянч сўзлар: ўқув адабиёти, замонавий дарслик, таълим воситаси, билимлар манбаи, ўқув материали, лойиҳалаш.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы разработки учебных книг, этапы становления и создания учебников для общеобразовательной школы.

Ключевые слова: учебная книга, современный учебник, средство обучения, источник знаний, учебный материал, проектирование.

Annotation. The article discusses theoretical foundations of the development of educational textbooks, the stages of formation and creation of textbooks for a general education schools.

Keywords: textbook, modern textbook, teaching tool, source of knowledge, educational material, designing.

Таълимда босма ахборотлардан бир неча асрлар аввал фойдаланиш бошланган бўлса, XV асрга келибгина китоб нашр этиш ихтиро қилинганидан сўнг амалий аҳамият касб этди. Дарслик яратиш назариясига чех педагоги Ян Амос Коменский асос солган бўлиб, у "Ҳиссий нарсалар-буюмлар дунёси расмларда" номли биринчи иллюстратив дарсликни яратди. Шу билан бирга, мактаб дарсликларини яратишнинг назарий тамойилларини ҳам ишлаб чиққан [1, 8-б.].

Ўқув адабиётларини яратишнинг назарий жиҳатларини ишлаб чиқишга Маҳмудхўжа Бехбудий[2], Абдурауф Фитрат[3], М.Қодиров[4], В.Г.Белинский [5], Н.А.Добролюбов [6], К.Д.Ушинский [7] кабилар катта ҳисса қўшишган.

XX асрнинг биринчи чорагида мактаб дарсликларини яратиш муаммолари Н.К.Крупская томонидан тадқиқ этилган. У ўзининг "Бизга қандай дарслик керак?" номли нутқида дарсликлар яратиш мазмуни, тузилмаси ва методикаси масалаларига доир тавсияларни тақдим этган. Жумладан, унинг фикрича, дарслик ўқув дастури мазмуни билан мос бўлиши; ўқув материаллари тўғри танланиши ва